

“PEDAGOGLARNING TAQVIM REJASINI ISHLAB CHIQUISH TARTIBI VA QONUNDA  
BELGILANGAN QOIDALARI”

**Matyoqubova Fotima Urinbayevna**  
*Urganch Davlat Universiteti Boshlang'ich  
ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada o'qituvchi taqvim rejasini ishlab chiqish tartibi to'g'risidagi qaror va qonunlar haqida qisqacha yoritib berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Ish reja, dars ishlanma, taqvimiy mavzular, kundalik.com tizimi.*

**Аннотация:** *В данной статье кратко разъясняются постановление и законы о порядке разработки календарного плана учителя.*

**Ключевые слова:** *план работы, разработка урока, темы календаря, система dinuklar.com.*

**Abstract:** *In this article, the decision and laws on the procedure for developing a teacher's calendar plan are briefly explained.*

**Key words:** *work plan, lesson development, calendar topics, dinuklar.com system.*

**Kirish:**

“Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining pedagogik mutaxassisliklari bo'yicha namunaviy yillik ish rejasini shakllantirish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomaga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish haqida”gi qaror Adliya vazirligida davlat ro'yxatidan o'tkazildi (3058-I-son, 29.06.2020 y.) Qarorga muvofiq, umumta'lim maktablari o'qituvchilari tomonidan yillik taqvim-mavzuiy reja hamda kundalik dars ishlanmalari (konspekt)ni yuritish bekor qilindi. Maktab o'qituvchilari tomonidan sinf jurnali elektron tizim orqali ham yuritilishi mumkinligi belgilandi. O'qituvchilarning pedagogik yuklamasini optimallashtirish, ularni asosiy yuklamadan tashqari boshqa hisobotlar va ortiqcha qog'ozbozlik ishlaridan ozod qilish hamda pedagogikaning mazmuniga ko'proq vaqt ajratishlari maqsadida “Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining pedagogik mutaxassisliklari bo'yicha namunaviy yillik ish rejasini shakllantirish tartibi to'g'risidagi yo'riqnoma” ga o'zgartirish kiritildi (Adliya vazirligidan 2020-yil 29-iyunda 3058-I raqam bilan ro'yxatdan o'tkazildi). Bunda, umumta'lim maktablarining o'qituvchilari tomonidan yuritiladigan hujjatlar soni bittagacha (sinf jurnali elektron ravishda kundalik.com tizimi orqali) qisqartirildi. Bu o'qituvchilarga asosiy e'tiborini dars mashg'ulotlarini yana-da qiziqarli qilib o'tishga qaratishi uchun sharoit yaratadi.

Barcha maktablarda fanlar bo'yicha taqvim mavzuiy rejalarini bir xillashtirish maqsadida, endilikda taqvim mavzuiy rejalar Respublika ta'lim markazi tomonidan tasdiqlanadi va o'quv yili oldidan vazirlikning rasmiy veb-saytlariga joylashtiriladi. Yuqorida ta'kidlab o'tilgan Davlat dasturiga muvofiq ishlab chiqilib amaliyotga joriy etilishi kutilayotgan “Milliy o'quv dasturi”ning asosiy komponentlari

doirasida barcha fanlardan “O‘qituvchi kitobi”ni joriy etilishi maktab o‘qituvchilarining dars ishlanmasi (konspekt)ning o‘rnini to‘ldiradi. Endilikda o‘qituvchilarimiz yaratilgan imkoniyatlardan unumli foydalangan holda ta’lim sifatini oshirishga alohida e’tibor qaratadilar degan umiddamiz. Bosqichma-bosqich o‘qituvchilar va maktab jamoasi faoliyati hujjatlarni to‘ldirishiga qarab emas, balki maktab bitiruvchilarining hayotda muvaffaqiyatga erishishlari bilan baholanishga o‘tiladi. Ushbu tizim O‘zbekistonda birinchi marotaba joriy qilinib, birinchilaridan bo‘lib Toshkent shahridagi Amiti universitetida qo‘llanildi. Tizim imtihon paytida nomzodlarning yuzlarini, ovozlarini va harakatlarini tahlil qila oladi. Abituriyentlar hamda imtihon jarayonida testdan o‘tish uchun boshqa axborot manbalaridan foydalana olmaydilar. Buo‘z navbatida, imtihon jarayonlarini haqqoniy va shaffof o‘tishini ta’minlab beradi. Imtihonlarning birinchi kunida Xalqaro tayyorgarlik kursi (International Foundation Study) yo‘nalishi bo‘yicha jami 700 nafarga yaqin abituriyent imtihon topshirdi. Imtihon davomida abituriyentlar xatti-harakatlari maxsus platforma orqali Hindiston tomondan biriktirilgan 56 ta professor-o‘qituvchilari tomonidan nazorat qilindi. Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, maktab o‘qituvchilari tomonidan sinf jurnali elektron tizim orqali ham yuritilishi mumkinligi belgilanganligi bu o‘qituvchilarga asosiy e’tiborini dars mashg‘ulotlarini yanada qiziqarli qilib o‘tishga qaratishi uchun sharoit yaratadi.

Asosiy qism: Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari pedagog xodimlarining ish yuklamalarini hisoblab chiqarish

Ish rejani shakllantirish uchun umumiy o‘rta ta’lim muassasasi pedagog xodimining yillik ish yuklamasi hisoblab chiqariladi. Umumiy o‘rta ta’lim muassasasi pedagog xodimining yillik ish yuklamasi quyidagicha hisoblab chiqiladi: 1-4-sinflar uchun belgilangan bir stavka miqdoridagi ish yuklamasi haftalik hajmini 1 koeffitsiyentga ko‘paytirish orqali, ya’ni:

$$18 \cdot 1 = 18 + 18 = 36 \cdot 4,3 (\text{hafta}) = 154,8 \cdot 43 (\text{hafta}) = 1548 \text{ soat};$$

5-11-sinflar uchun belgilangan bir stavka miqdoridagi ish yuklamasi haftalik hajmini 0,8 koeffitsiyentga ko‘paytirish orqali, ya’ni:

$$20 \cdot 0,8 = 16 + 20 = 36 \cdot 4,3 (\text{hafta}) = 154,8 \cdot 43 (\text{hafta}) = 1548 \text{ soat}.$$

Umumiy o‘rta ta’lim muassasasi pedagog xodimining yillik ish yuklamasi (bir stavka hisobida) bir haftada 36 soat, bir oyda 154,8 soat, bir yilda 1548 soat miqdorida quyidagi qismlardan iborat holda amalga oshiriladi:

o‘quv-tarbiya jarayoni;

o‘quv-tarbiya jarayonining metodik ta’minoti va tashkiliy-pedagogik jarayon.

O‘quv-tarbiya jarayoni uchun ajratiladigan soatlar miqdori quyidagicha aniqlanadi: 1-4-sinflar uchun belgilangan bir stavka miqdoridagi ish yuklamasi haftalik hajmini bir yil mobaynida dars mashg‘ulotlari olib boriladigan haftalar soniga ko‘paytirish orqali, ya’ni  $18 \cdot 34 = 612$  soat; 5-11-sinflar uchun belgilangan bir stavka miqdoridagi ish yuklamasi haftalik hajmini bir yil mobaynida dars mashg‘ulotlari olib

boriladigan haftalar soniga ko'paytirish orqali, ya'ni  $20 \cdot 34 = 680$  soat. O'quv-tarbiya jarayonining metodik ta'minoti va tashkiliy-pedagogik jarayon uchun ajratiladigan soatlar miqdori quyidagicha aniqlanadi: 1-4-sinflar uchun belgilangan bir stavka miqdoridagi ish yuklamasi yillik hajmidan o'quv-tarbiya jarayoni uchun ajratiladigan soatlarni ayirish orqali, ya'ni  $1548 - 612 = 936$  soat; 5-11-sinflar uchun belgilangan bir stavka miqdoridagi ish yuklamasi yillik hajmidan o'quv-tarbiya jarayoni uchun ajratiladigan soatlarni ayirish orqali, ya'ni  $1548 - 680 = 868$  soat.

**Xulosa:** Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining pedagogik mutaxassisliklari bo'yicha namunaviy yillik ish rejasini shakllantirish Ish reja ikki yo'nalishdagi tadbirlar majmuasidan iborat tarzda shakllantiriladi: o'quv-tarbiya jarayoniga oid, o'quv-tarbiya jarayonining metodik ta'minoti va tashkiliy-pedagogik jarayonga oid. O'quv-tarbiya jarayoniga oid yillik ish reja umumiy o'rta ta'lim muassasasi rahbariyati tomonidan tasdiqlangan dars jadvaliga ko'ra pedagog xodimlarga tarifkatsiya bo'yicha ajratilgan dars soatlari asosida shakllantiriladi. O'quv-tarbiya jarayoniga oid yillik ish reja asosida pedagog xodim tomonidan o'quv yili boshlanishidan oldin taqvim-mavzuiy reja tuziladi. Dars mashg'ulotlari taqvim-mavzuiy rejaga asosan olib boriladi. O'quv-tarbiya jarayoniga oid yillik ish rejaning o'z vaqtida va sifatli bajarilishi ustidan umumiy o'rta ta'lim muassasasi direktori va uning o'quv-tarbiya ishlari bo'yicha o'rinbosari nazoratni amalga oshiradi. O'quv-tarbiya jarayonining metodik ta'minoti va tashkiliy-pedagogik jarayon umumiy o'rta ta'lim muassasasi oldiga qo'yilgan vazifalardan kelib chiqqan holda, ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning bilimlarini mustahkamlash, ma'naviyatini yuksaltirish, bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish bilan bog'liq dars mashg'ulotlaridan tashqari tadbirlarni o'z ichiga oladi va ushbu tadbirlar muassasaning har yillik hamda istiqbol rejasida ko'zda tutiladi. O'quv-tarbiya jarayonining metodik ta'minoti va tashkiliy-pedagogik jarayonga oid yillik ish rejada har bir pedagog xodimning lavozim majburiyatlari hamda u bilan tuzilgan mehnat shartnomasida belgilangan vazifalar bilan bir qatorda o'quvchilarni barkamol va ma'naviy yetuk inson etib tarbiyalash maqsadida ularning qobiliyat va iste'dodlarini rivojlantirishni nazarda tutgan holda, fanlarni o'zlashtirishda qiynalayotgan va iqtidorli o'quvchilar bilan alohida mashg'ulotlar olib borishi hamda pedagog xodimning o'z ustida mustaqil ishlashi nazarda tutiladi. O'quv-tarbiya jarayonining metodik ta'minoti va tashkiliy-pedagogik jarayonga oid yillik ish rejada belgilangan tadbirlarning amalga oshirilishi yuzasidan pedagog xodimlardan hisobot talab qilinmaydi hamda tadbirlarni amalga oshirishning vaqt bo'yicha hisobi yuritilmaydi. Umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchilarining dars va to'garak mashg'ulotlarini tashkil etish hamda sinf jurnalini yuritishdan tashqari boshqa pedagogik yuklamalar bo'yicha hisobotlar va qo'shimcha ma'lumotlarni talab qilish qat'iy qat'iy taqiqlanadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni (Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: Sharq nashriyot matbaa-kontserni. 1997. –B.20-29.
2. O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» //Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.:SHarq nashriyot matbaakontserni.1997. B.-31-61
3. <https://lex.uz/docs/-3876821>